

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA MUSIQA TA'LIMINI TASHKIL ETISHNING PEDAGOGIK ZARURATI

**Baxodirova Yulduzxon Baxtiyor qizi**

Xalqaro Nordik universiteti magistranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limini tashkil etishning pedagogik zarurati yoritilgan. Musiqa bolalar rivojlanishiga ko'rsatadigan ijobiy ta'siri, estetik didni shakllantirishdagi roli, emotsional va intellektual rivojlanishdagi ahamiyati asoslab berilgan. Ta'lim jarayonida musiqa mashg'ulotlarini ilmiy-pedagogik asosda tashkil etish metodikasi, pedagoglarning kasbiy mahorati va bolalarning yosh xususiyatlariga mos yondashuv muhimligi ta'kidlangan. Maqolada shuningdek, musiqa vositasida bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ijtimoiylashuvini ta'minlash va ular orasida estetik munosabatlarni shakllantirish masalalari ham ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** maktabgacha ta'lim, musiqa ta'limi, pedagogik zarurat, estetik tarbiya, bolalar rivojlanishi, metodika, ijodiy qobiliyat, emotsional rivojlanish.

**Abstract:** This article highlights the pedagogical need for organizing music education in preschool educational organizations. The positive impact of music on the development of children, its role in the formation of aesthetic taste, and its importance in emotional and intellectual development are substantiated. The methodology for organizing music lessons on a scientific and pedagogical basis in the educational process, the professional skills of teachers, and the importance of an approach appropriate to the age characteristics of children are emphasized. The article also considers the issues of developing children's creative abilities through music, ensuring their socialization, and forming aesthetic relationships among them.

**Keywords:** preschool education, music education, pedagogical need, aesthetic education, child development, methodology, creative abilities, emotional development.

Mustaqil O'zbekistonning kelajagini, ertasini yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ajdodlarimizga munosib avlodni tarbiyalash bizga, endi yetishib chiqayotgan kadrlar zimmasiga mas'uliyatli va sharaflilarni, ya'ni bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yish yuklatildi. Maktabgacha yoshdagi bolalar musiqa tarbiyasi, uning taraqqiyoti timsolida yurtimizning porloq kelajagi, davlatimizni buyukligini tasavvur etganining natijasiga ko'ra ta'lim to'g'risidagi qonun va yangicha dunyoqarash talab etilar edi. 1997 yil „Ta'lim to'g'risidagi Qonun“ hamda „Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi“ asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Ta'lim sohasida, jumladan, uning birinchi pog'onasi bo'lgan maktabgacha ta'lim bosqichida ham katta o'zgarishlar qilish ehtiyoji tug'ildi. Buning uchun pishiq — puxta o'ylangan, ma'lum maqsad va vazifalarni o'zida mujassamlashtirgan istiqbolli dasturlar talab etar edi.[1]

Unda uzluksiz davom etadigan bir butun ta'lim-tarbiya jarayonining belgilovchi ilk turi „maktabgacha ta'lim“ deb ataldi. Birgina shu yondashuvning o'ziyoq tarbiyaga mehribonlik va adolat bilan qarashni talab etadi. Negaki, bugunki yosh avlod zimmasida XXI asrda kuchga to'lib, sog'lom, bilimli, aqlli bo'lib jamiyatimizning faol a'zolariga aylantirishdek ulkan vazifa turibdi. Bunda esa ular siz-u bizga, ya'ni kattalarga ishonadilar. Agar yoshlarimizdagi shijoatni, kuch-qudratni, bilimdonlikni va vatanparvarlik bilan uyg'unlashtira olsak, bundan-da ziyoda qudratni topa olmaymiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarni rivojlantirish jarayoni oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalarning bajarilishiga erishish uchun „Uchinchi mingyillikning bolasi“ tayanch dasturi va o'quv

qo'llanma asosida amalga oshiriladi, Bundan tashqari ko'pgina o'quv va metodik qo'llanmalar mavjud. Bularning asosiy maqsadlari bir yo'lga qaratilgan, ya'ni komil insonni tarbiyalash va voyaga yetkazishdir.

Zamonaviy ta'lim tizimida bolalarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi. Ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalarda estetik did, hissiy sezgirlik, ijodkorlik va madaniy ongni shakllantirishda musiqa ta'limi muhim o'rin tutadi. Musiqa bolalarning emotsional dunyosini boyitadi, ularni ijtimoiylashuvga, go'zallikni anglashga, o'z fikr va his-tuyg'ularini ifoda etishga o'rgatadi. Shu boisdan maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa mashg'ulotlarini ilmiy-pedagogik asosda tashkil etish dolzarb masalalardan biridir.

Musiqa ta'limining maqsadi va vazifalari. Musiqa ta'limi orqali quyidagi pedagogik vazifalar amalga oshiriladi:

bolalarning eshitish qobiliyatini rivojlantirish;

ritm va musiqiy ohangni anglashga o'rgatish;

qo'shiq aytish, musiqa tinglash, raqs elementlari orqali estetik zavqni shakllantirish;

ijodiy fikrlash va emotsional ifoda imkoniyatlarini kengaytirish.

Bu jarayonda har bir bola o'z qobiliyatini namoyon eta oladi va mustaqil musiqiy faoliyatga jalb qilinadi.

Pedagogik yondashuv va metodik usullar. Maktabgacha ta'limdagi musiqa mashg'ulotlari bolaning yosh va psixologik xususiyatlariga mos tarzda tashkil etilishi lozim. Dars jarayonida quyidagi usullardan foydalaniladi:

o'yini metodlar – musiqa bilan bog'liq o'yinlar orqali bilim berish;

vizual va eshituv materiallar – musiqiy asboblar, audio yozuvlar, qo'shiq matnlari;

faol ishtirok – bolalarni qo'shiq aytishga, harakatlarga, oddiy cholg'ularni chalishga jalb etish.

Shuningdek, pedagogning nutqi, ifodasi, kayfiyati ham bolaning musiqiy taassurotlariga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Musiqa orqali ijtimoiy va axloqiy tarbiya. Musiqa bolalar orasida hamjihatlik, o'zaro hurmat, madaniyat va dunyoni estetik idrok etish kabi fazilatlarini shakllantiradi. Jamoa bilan qo'shiq aytish yoki raqs qilish, birgalikda tinglab baham ko'rish kabi faoliyatlar orqali bolalarda ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. Bu esa ularning maktab hayotiga tayyorlanishida muhim poydevor hisoblanadi.

Bolalarda yoshlik chog'idan idrok etish, his etish, turmush va san'atdagi go'zallikni tushunish ishtiyoqi tarbiyalanadi va bu kabi go'zallikni yaratishga intilish kuchayadi. Bolaning badiiy faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Unda badiiy-ijodkorlik qobiliyati rivojlanadi. Musiqiy-estetik tarbiya demokratik jamiyat kishisini garmonik tarbiyalash yo'lida olib borilayotgan ulkan ishning tarkibiy qismiga aylanmog'i kerak, Ayniqsa, bolalar bilan musiqiy ish olib borish katta ahamiyat kasb etadi. Omma orasida musiqiy targ'ibot olib bormay turib, to'laqonli natijalarga erishib bo'lmaydi. Musiqiy tarbiya bolalarda erta yoshdan boshlanishi kerak. Musiqa bola qalbida kuchli emotsional his-tuyg'u uyg'otadi. Musiqa yordamida uning badiiy idroki o'sib, hissiyotini yanada boyitib boradi. Bolalarda musiqiy idrokini rivojlantirmay ularning musiqaga mehr-muhabbatini yetarli darajada qiziqitirmay turib, har tomonlama jismoniy, ma'naviy boy shaxsni shakllantirib va boshqa ijobiy sifatlarini tarbiyalab bo'lmaydi. Musiqaga yoshlikdan uyg'ongan qiziqish kishining keyingi musiqiy rivojiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa mashg'ulotlari bolalarning umumiy madaniyatiga ham ta'sir qilmay qolmaydi. Har xil faoliyatlar bilan shug'ullanish (musiqa tinglash, qo'shiq aytish, musiqiy-ritmik harakatlar bajarish, bolalar musiqiy cholg'ularida ijro-etish) bolalardan diqqatni, uyushqoqlik, irodaviylikni, zukkolikni talab qiladi. Bu faoliyatlar davomida bolalarda irodaviylik shakllanib,

tortinchoqlik yo'qola boradi. Shu tarzda musiqiy faoliyatlar bolalar shaxsining ma'naviy-madaniy sifatlarini shakllantirish uchun kerakli bo'lgan shart-sharoitlari ta'minlaydi va ularning umumiy madaniy saviyasiga asos soladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida musiqa ta'limini tashkil etish – bolalar shaxsini har tomonlama rivojlantirishning ajralmas qismi bo'lib, u pedagogik jihatdan zarur va asosli jarayondir. Musiqa bolalarda nafaqat estetik tarbiyani, balki axloqiy, emotsional va intellektual o'sishni ham ta'minlaydi. Shu sababli, har bir maktabgacha ta'lim muassasasi musiqa darslarini sifatli, tizimli va maqsadli tashkil etishga alohida e'tibor qaratishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Dildora Soipova, Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi, O'quv qo'llanma, Toshkent-2009, 3-5-b.
2. Abdullin E. O nachalnom etape muzikainogo obucheniya v obsheobrazovatelnix shkolax Yaponii // Muzikalnoe vospitanie v shkole, vip.9. M., 1984.
3. Voprosy metodiki muzikainogo vospitaniya detey. M.: «Muzika», 1985.
4. Goncharenko N.V. Geniy v iskusstve i v nauke. M., 1991.
5. Ibn Sina (Avisenna). Izbranno'e filosofskie proizvedeniya. M., 1980.
6. Yo'ldosheva S.<sup>2</sup>. O'zbekiston musiqa tarbiyasi va ta'limining rivojlanishi. T., 1985.
7. G'oziev E.G'. Umumiy psixologiya: Darslik, I, II – kitob. T., 2002.
8. Umumiy psixologiya: Darslik G' A.V.Petrovskiy va boshq. T., 1992.
9. Valiyeva Feruza Rashidovna, Abdunazarova Nargiza Fatxullayevna, Zakirov Alisher Akbarovich. The importance of ensuring the mental, physical, spiritual, spiritual development of educators of pre-school educational organizations. PhD. Valieva Feruza Rashidovna //Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry (TOJQI) Volume 12, Issue 8. July. 2021:6919.
10. Abdullayeva N.Sh. Leader competency and its specific characteristics in managing the school education system// American Journal Of Social Sciences And Humanity Research eISSN:2771-2141Pages:152-158|Crossref DOI:<https://doi.org/10.37547/ajsshr/Volume04Issue02-23> Published Date: 2024-02-29<http://theusajournals.com/index.php/ajsshr/article/view/2548>
11. Abdullayeva N.Sh. Maktabgacha ta'limda samarali boshqaruv: ta'lim sifati va kursatkichi omili sifatida// Maktabgacha talimda sifat va samaradorlik: rivojlaniш istiqbolлари: amaliyot va xorijiy tajriba" mavzusida МТТДМҚТМОИ халқаро ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami 4-5 декабрь 2024 йил Б 39-40